

MUMTOZ ADABIYOT MAVZULARIDA JANRLAR TASNIFINING DARSLIKLARIDA AKS ETISHI

Munisa Toshtemirova

*Samarqand davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 2-bosqich magistranti +998 50 550 31 11 Toshtemirovamunisa48@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumta'lim maktablari adabiyot darsliklarida mumtoz adabiyot janrlarining tasnifi va ularning berilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida g'azal, ruboiy, qasida, masnaviy, doston kabi mumtoz janrlarning darsliklardagi o'rni, izohlanish darajasi hamda nazariy tushunchalar bilan badiiy matnlar o'rtasidagi uyg'unlik o'rganildi. Tahlil natijalariga ko'ra, ayrim janrlarning darsliklarda yetarli darajada tizimli yoritilmagani va janr belgilarining to'liq ochib berilmagani aniqlandi. Maqolada aniqlangan holatlar asosida mumtoz adabiyot janrlarini darsliklarda berishni takomillashtirishga doir metodik xulosalar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *mumtoz adabiyot, janrlar tasnifi, adabiyot darsliklari, badiiy janr, metodika.*

ОТРАЖЕНИЕ КЛАССИФИКАЦИИ ЖАНРОВ В УЧЕБНИКАХ ПО ТЕМАМ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Муниса Тоштемирова

*Студент 2 курса магистратуры, кафедра узбекского языка и литературы,
факультет языков, Самаркандский государственный педагогический институт*

Аннотация: *В статье анализируется классификация жанров классической литературы и особенности их представления в школьных учебниках по литературе. В ходе исследования изучено место таких классических жанров, как газель, рубаи, касида, маснави, дастан, уровень их пояснения, а также соотнесённость теоретических понятий с художественными текстами. Результаты анализа показали, что некоторые жанры в учебниках освещены недостаточно системно, а их жанровые признаки раскрыты не в полной мере. На основе выявленных положений в статье выдвигаются методические выводы и рекомендации по совершенствованию преподавания жанров классической литературы в учебниках.*

Ключевые слова: *классическая литература, классификация жанров, школьные учебники, литературный жанр, методика.*

REFLECTION OF GENRE CLASSIFICATION IN TEXTBOOKS ON CLASSICAL LITERATURE TOPICS

Munisa Toshtemirova

*2nd year master's student, Department of Uzbek Language and Literature, Faculty of
Languages, Samarkand State Pedagogical Institute*

Abstract: *This article analyzes the classification of classical literature genres and the features of their presentation in school literature textbooks. The study examines the place of such classical genres as ghazal, rubai, qasida, masnavi, and dastan, the level of their explanation, as well as the correlation between theoretical concepts and literary texts. The analysis reveals that some genres are not presented systematically enough in textbooks and that their genre characteristics are not fully explained. Based on these findings, the article proposes methodological conclusions and recommendations for improving the presentation of classical literature genres in textbooks.*

Keywords: *classical literature, genre classification, school textbooks, literary genre, methodology.*

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyoti xalqimizning qadim zamonlardan XIX asrning o'rtalarigacha vujudga kelgan noyob badiiy durdonalari haqida bahs yuritadi. Tabiiyki, bu ming yilliklarga cho'ziladigan jarayonda dunyo yuzini ko'rgan badiiy asarlarda xalqimizning dastlabki e'tiqodiy qarashlaridan tortib XIX asrning o'rtalarigacha yashab ijod qilgan qalamkashlarimizning irfoniy-falsafiy, adabiy-badiiy, ilohiy-ma'naviy qarashlari o'z ifodasini topgan. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi mana shu uzoqqa cho'zilgan murakkab jarayonda vujudga kelgan turli xil va janrlardagi badiiy asarlarni o'z ichiga oladi. Nazm va epos asrlar davomida o'zbek mumtoz adabiyotining asosiy xillaridan bo'lib, taraqqiy topib keldi. G'azal, ruboiy, qasida, masnaviy, muxammas, musaddas, qit'a, tarje'band, tarkibband (v.h.) masal, hikoya va shu kabilar esa keng tarqalgan adabiy janrlar sanaladi. [3, 6 b.].

O'zbek mumtoz adabiyoti yodnomalar (memuar), tarixiy asarlar hamda tazkiralarni ham o'z ichiga oladi. Ma'lumki, o'tmishda tarixnavislik badiiy ijod bilan qorishiq holda olib borilgan. Muarrixlar biror tarixiy voqea tafsilotlarini bayon qilishda badiiy uslubga murojaat etishgan. Jumladan, Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam", "Tarixi hukamo va anbiyo", Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarai turk", "Shajarai tarokima", Shermuhammad Munis va Muhammadrizo Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" kabi tarixiy asarlari, shuningdek, Zahiriddin Boburning "Bobumoma" singari qomusiy kitobidagi badiiy lavhalar va she'rlar yuqorida aytilgan fikrlarimizga yanada quvvat beradi. [3, 7 b.].

Mumtoz adabiyot har qanday millat madaniyatining asosi va g'urur manbai hisoblanadi.

O'zbek mumtoz adabiyoti esa o'zining qiziqarli janrlari, ulug'vor ijodkorlari va boy tarixiy merosi bilan farqlanadi.

Maktablarda mumtoz adabiyotga doir mavzularni o'qitish, nafaqat o'quvchilarda badiiy tafakkur va estetik his-tuyg'ularni rivojlantirish, balki ularga o'z millati va madaniyati bilan bog'liq chuqur bilim berish maqsadida amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mumtoz adabiyotda janrlar tasnifi masalasi adabiyotshunoslik fanida muhim nazariy muammo sifatida ko'p marotaba tadqiq etilgan. Xususan, Sharq mumtoz adabiyotiga xos janrlar – g'azal, qasida, masnaviy, ruboiy, muxammas, musaddas kabi shakllarning poetik xususiyatlari, mazmuniy yo'nalishi va funksional vazifalari haqida qator ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Bu borada klassik adabiyot nazariyasiga oid manbalarda janrlar ko'proq tarixiy-estetik tamoyillar asosida yoritilgan bo'lsa, zamonaviy darsliklarda ularning didaktik talqini ustuvor ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda umumta'lim maktablari uchun yaratilgan adabiyot darsliklarida mumtoz janrlarning berilish usuli, ularning mavzular bilan bog'liq holda tasniflanishi hamda o'quvchi yoshiga moslashtirilishi masalalari muayyan darajada ilmiy-metodik izoh talab etadi. Ayrim tadqiqotlarda janr tushunchasi mavzu bilan qo'shib talqin qilinib, ularning chegaralari aniq ajratilmagan holatlar ham uchraydi. Shu jihatdan mazkur maqolada mavjud darsliklardagi janrlar tasnifining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy aks etishi tahlil qilinadi. Eng avvalo mumtoz adabiyot janrlariga ozgina to'xtalib o'tsak.

Fard (arabcha so'z bo'lib, yakka, yolg'iz, toq ma'nolarini beradi) "shoir tomonidan ma'lum mavzu va g'oyaviy maqsadda ijod qilingan mustaqil she'riy baytdir. Fard bir bayt hajmidagi, shaklidagi she'riy asardir. Unga berilgan janr atamasi ham baytning yakkaligiga asoslanadi. Binobarin, baytning yakkaligi uning janriy belgisini ham anglatadi. Shu nomning lug'aviy, istiholiy ma'nosidan uning ixcham, o'ta mo'jaz she'r shakli ekanligi ham anglashib turiladi: qisqalik va siqqlik unda chuqur mazmunni, pandu hikmat va donolikni ifodalashni taqozo etadi". [2, 4 b.].

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitdi ranj ila,
Aylamak oson emas haqqin ado ming ganj ila.
(Alisher Navoiy)

Musallas (arabcha so'z bo'lib, uchlik, uchlama) mumtoz poeziyamizda kam yaratilgan. "Bu shaklning kam qo'llanilganining sababi 1-2 juft misradan keyingi 3- misraning qofiya jihatidan toq bo'lishidir (a-a-b). Bu holat esa she'rda notamomlikka, fikriy uzilishga sabab bo'lishi mumkin" deb asoslash noo'rindir. Bizningcha, uning asosini davr va odamlar ehtiyojidan izlash to'g'riroq b'lgan bo'lardi. Musallas Yevropa adabiyotida "tersina" (ital. uchlik), bugungi poeziyamizda "uch chanoq" deb yuritiladi. Unda poetik olamning obrazi to'liq ifodasini topa oladi; bugungi "tezkor" zamonda kishilarning murakkab, ziddiyatlarga to'la, shiddatkor, betakror ruhiy dunyolarini borligicha namoyon etishga qodir kuch-mo'jiza bor. Unda olam mohiyatining, tuyg'ular mag'zining falsafasi ifodasi, bu ifodaning eng nozik va judayam ixcham jonli surati mujassam:

Hech bir inson anglamas bizni,
Itdek tepib o'tar kiborlar,
Eh, naqadar baxtsizdir ular.

Ruboiy (ar. to'rtlik) – "ikki baytli she'r bo'lib, uning yuzaga kelishiga, xalq she'riyatidagi to'rtliklar asos bo'lgan» (B.Sarimsoqov, N.Hotamov). Aruz hukmronlik qilgan davrlarda "hazaj bahrining "ahram" va "ahrab" shajaralaridagi 24 sho'bada

yaratilgan... uning yetakchi janr belgisi – undagi chuqur mazmunni hazaj bahri vaznlarida ifodalash” (R.Orzibekov) sanalgan. “Odatdagi ruboiyning birinchi misrasi tezis, ya’ni shoir keyin isbot qilishi lozim boigan fikrning da’vo shaklida o’rtaga tashlashidir. Ikkinchi misra antitezis, avvalgisiga zid, uning aksidek jaranglaydi. Biroq, dastlab qo’yilgan tezisning isbotiga xizmat qiladi. Uchinchi misra qofiyasiz bo’lib, moddai ruboiyya deb ataladi. Shoir xulosa chiqarishga tayyorlanar ekan, bu go’yo asosiy maqsadga, xulosaga olib keluvchi ko’prik burchini o’taydi. Nihoyat so’nggi misra, maqsadni ochiq, ravshan aytib tugatilishi sintezdir. Ruboiy, to’rt misraga sig’dirilgan butun bir she’riyat dunyosi, insonning g’oyat xilma-xil va juda boy fikr-hislari, “qalb dialektikasi’ning ajoyib taijimonidir”. [4, 77 b.].

Tuyuq (ar. tuslash, tuymoq) – lirikaning o’ynoqi, shoirning so’z san’atini yaqqol ko’rsatuvchi janrdir. R.Orzibekovning ta’kidlashicha, 1) tuyuq “to’rt misradan iborat mustaqil va to’liq ma’noga ega bir butun asar ekanligi; 2) ko’proq a,a,b,a ba’zan a, a, a, a shaklidagi qofiyalanish; 3) xuddi ruboiydagi singari tezis (1-misra), antitezis (2-misra), moddai tuyuq (3-misra) va sintez (4-misra) kompozitsiyasiga ega bolish; 4) murabba’ she’rlaridan farqli o’laroq so’nggi misralarda shoir taxallusining ko’rsatilmaligi kabi xususiyatlari bilan ruboiylarga o’xshasa ham, ammo o’ziga xos yagona vazn “ramali musaddasi maqsur” (foilotun foilotun foilun)da yozilishi va shu “vazn bilan o’z badaniga noz libosini kiyish” (A.Jomiy) aksar qofiyalarining tajnisli so’zlardan iborat bolishi bilan farq qiladi”. [2, 98 b.].

Tarji’band (ar. banddagi takror) “asosan bir baytning har band oxirida aynan takrorlanib (tarji’) kelishi bilan xarakterlanuvchi she’r bo’lganligi uchun shu takrorlanuvchi bayt “vosita bayt”, “bosh bayt”, “vosila bayt” deb yuritiladi va masnaviy shaklida (a-a,b-b,v-v) qofiyalanadi. Chunki bandlardagi boshlang’ich baytning qofiyasi a-a dir, navbatdagi baytlarda esa g’azallardagi qofiyalanish usuliga o’xshab faqat ikkinchi misralar qofiyalana-di va ular oxirgi bosh baytgacha shu holda davom etadi. Har band oxirida, muayyan tarzda takrorlanib turuvchi baytda shoir aytmoqchi bo’lgan g’oyaviy muddao, asosiy fikr ta’kidlanadi va o’quvchining diqqati doim shu baytdagi xulosaga qaratib boriladi”. [1, 112 b.].

G’azal (ar. ayollarga sevgi va munosabat izhor qilish) asosan ishq-muhabbatni kuylovchi, muhabbat kabi judayam qadimiy, doimo yangi bo’lgan lirik she’rdir. G’azal Mavlono Fuzuliy ta’biricha, “Shoir qudratini bildiruvchi, hunarning guli-gulistoni”dir, Mavlono Vohid Abdulla nazdida “Qalb qonidan ochilgan lola”dir. G’azal aruzda ikki misrali bayt usulida yoziladi. Uning birinchi bayti “matla” (“boshlanma”) deb yuritiladi va undagi ikki misra qofiyadosh (a-a) bo’ladi. Keyingi baytlarning ikkinchi misralari matla’ga qofiyadosh (b-a, va, g-a, d-a va h.k.) bo’ladilar. G’azalning oxirgi xulosaviy bayti “maqta” (“tugallanma”) deb yuritiladi va unda g’azal muallifining ismi yoxud taxallusi (“qutulish, xalos bo’lish”) qo’llaniladi. G’azalda, ko’pincha, qofiyadan so’ng radif keladi. G’azal 3 baytdan 19 baytgacha bo’lishi mumkin. Uning mumtoz shakli 7 baytdir.

Mazkur tadqiqotda ilmiy-nazariy va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Jumladan, mumtoz adabiyot janrlariga oid klassik va zamonaviy adabiyotshunoslik manbalari tahlil qilinib, ularning darsliklardagi talqini bilan qiyoslab o’rganildi.

Shuningdek, umumta'lim maktablari uchun mo'ljallangan adabiyot darsliklarida mumtoz adabiyot mavzulari doirasida berilgan janrlar tasnifi mazmuniy va tuzilmaviy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy metod yordamida janrlarning darsliklardagi taqdim etilish shakllari aniqlanib, mantiqiy tahlil asosida ularning ilmiy asoslanganlik darajasi baholandi. Olingan natijalar mumtoz adabiyot janrlarini o'qitishda metodik yondashuvlarni takomillashtirish nuqtayi nazaridan umumlashtirildi.

NATIJA VA MUNOZARALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablari adabiyot darsliklarida mumtoz adabiyot janrlarining taqdim etilishi sinflar kesimida bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Xususan, 5-sinfda Bobur ruboiylarining kiritilishi o'quvchilarni mumtoz she'riyatning ixcham, mazmunan teran janri bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Ruboiy janrining qisqa shakli va hayotiy-falsafiy mazmuni boshlang'ich bosqichdagi o'quvchilarning idrok imkoniyatlariga mos keladi hamda mumtoz adabiyotga dastlabki qiziqishni shakllantiradi.

6-sinfda Alisher Navoiy ruboiylarining berilishi mazkur janrning badiiy va g'oyaviy imkoniyatlarini kengroq anglashga zamin yaratadi. Bobur va Navoiy ruboiylarini qiyosiy o'rganish orqali o'quvchilarda mualliflik uslubi, mavzu tanlovi va obrazlar tizimidagi farqlarni sezish ko'nikmasi shakllanadi. Biroq darsliklarda ushbu qiyoslash imkoniyatlari har doim ham metodik jihatdan to'liq ochib berilmaganini kuzatish mumkin.

7-sinfda Navoiyning qit'a va fardlari, shuningdek, Uvaysiyning g'azal va chistonlarining kiritilishi mumtoz janrlar tasnifining kengaygan bosqichini ifodalaydi. Qit'a va fard janrlarining ko'proq axloqiy-falsafiy mazmuni o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilsa, Uvaysiy g'azallaridagi lirizm va chiston janrining topqirlikka asoslangan xususiyatlari o'quvchilarda badiiy tafakkur va ijodiy fikrlashni faollashtiradi. Shu bilan birga, mazkur janrlarning mavzu bilan bog'liq holda berilishi ayrim hollarda janr mustaqilligining yetarli darajada anglanmasligiga olib kelishi mumkin.

9-sinfda Bobur g'azallarining o'rganilishi mumtoz adabiyot janrlarini tizimli va chuqur tahlil qilish bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. G'azal janrining murakkab poetik tuzilishi, ramziy obrazlar va falsafiy-lirik mazmuni yuqori sinf o'quvchilarining estetik tafakkur darajasiga mos holda talqin etilgan.

Biroq darsliklarda g'azal janrining boshqa mumtoz janrlar bilan qiyosiy tahlili yetarlicha chuqurlashtirilmagan. Umuman olganda, darsliklarda mumtoz adabiyot janrlarining sinflar kesimida joylashtirilishi mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'lsa-da, janrlar tasnifining ilmiy-nazariy asoslari har doim ham aniq va izchil yoritilmagan.

Bu holat janr va mavzu tushunchalarining ayrim hollarda bir-biriga qorishib ketishiga sabab bo'ladi. Mazkur masala mumtoz adabiyot janrlarini o'qitishda yanada puxta metodik yondashuvni talab etadi.

XULOSA

O'tkazilgan tahlil umumta'lim maktablari adabiyot darsliklarida mumtoz adabiyot janrlarining tanlanishi va taqdim etilishi muayyan didaktik mantiqqa asoslanganini ko'rsatadi. Darsliklarda ruboiy, qit'a, fard, g'azal va chiston kabi janrlarning bosqichma-

bosqich kiritilishi o'quvchilarning adabiy tafakkuri rivojlanishini hisobga olgan holda amalga oshirilgan.

Shu bilan birga, janrlar ko'pincha mavzular bilan bog'liq holda berilgani sababli ayrim hollarda janrning mustaqil poetik hodisa sifatidagi mohiyati yetarli darajada ochilmay qolmoqda. Natijada o'quvchilarda janrlar tizimi haqida parchalangan tasavvur shakllanishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, darsliklarda mumtoz adabiyot janrlarining joylashtirilishi mantiqan asoslangan bo'lsa-da, ularning ilmiy-nazariy aniqligi va metodik izchilligini kuchaytirish zarur.

Janr va mavzu tushunchalarini aniq chegaralash hamda janrning poetik xususiyatlarini izchil yoritish mumtoz adabiyot ta'limi samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Orzibekov R. O'zbek she'riyati janrlari. S.: SamDU nashri, 1998.
2. Orzibekov R. O'zbek she'riyati janrlari va poetikasi. II kitob. S.: SamDU nashri, 1999.
3. Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
4. Yunusov M. Barhayot an'analar. T.: 1969.